

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan ijro intizomini samarali  
tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida  
MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 25-iyulda **“Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”** gi 117-sonli Farmon qabul qilinib, unga ko‘ra Prezident **Farmon, qaror, farmoyish** va **topshiriqlari** hamda hukumat **qaror** va **topshiriqlari ijrosini tashkil etish** va **nazorat qilishning yanada samarali mexanizmlari** yo‘lga qo‘yildi.

Bu bilan, Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarida berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida **“O‘zsanoatqurilishbank” ATB** tomonidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, bankda ijro intizomiga bevosita mas‘ul mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida **Ijroni boshqarish va rivojlantirishni tahlil qilish departamenti** faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, bankda **ish yuritish** va **ijro nazoratini tashkil etish**da xat-hujjatlarning **elektron aylanishi** yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, bugungi kunda, ushbu **elektron dastur** orqali:

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar kelib tushgan vaqtdan boshlab **30 daqiqa** mobaynida Ijro departamenti mas‘ul xodimi tomonidan **ro‘yxatdan o‘tkaziladi** hamda **rahbariyatga axborot beriladi**;

- rahbariyat **bir kun muddatda** mas‘ul ijrochini belgilagan holda **tegishli topshiriqlarni beradi**;

- **belgilangan muddat** doirasida mas‘ul ijrochi tomonidan topshiriq ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlar va hujjatlar rahbardan elektron tasdiqlanib, **tegishli tashkilotlarga yuboriladi**.

Ushbu elektron dastur orqali topshiriqlarning bajarilish jarayoni doimiy nazorat qilinadi, belgilangan muddatlarda ijro etilishini monitoring qilish, ijro intizomini tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari yaratilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2026 yilning **25-may** holatiga **“Ijro.gov.uz”** tizimi orqali **quyidagi ijro mexanizmlari** yo‘lga qo‘yilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **jami 441 ta** hujjatda **1 879 ta topshirig‘i** kelib, **1 573 tasi (84 foizi)**ning ijrosi to‘liq ta‘minlangan;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Administratsiyasi** tomonidan **39 ta** hujjatda **114 ta topshiriq** kelib, **97 tasi (83 foiz)** ijrosi ta‘minlandi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan **198 ta** hujjat bilan **385 ta topshiriq** kelib, **346 tasi (90 foizi)** bajarilgan.

Ta'kidlash joizki, qolgan topshiriqlar **belgilangan muddatlarga muvofiq** ijro etilmoqda.

Berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq hamda sifatli ta'minlash maqsadida, o'rnatilgan tartibda **barcha zarur choralar** ko'rib kelinmoqda:

**birinchidan**, **har haftaning juma kuni** Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari huzurida "**Ijro.gov.uz**" elektron tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar hamda maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishi holati muhokama qilinadi. Shuningdek, **har haftaning dushanba kuni** Boshqaruv raisi boshchiligida ijro intizomi yo'nalishidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish masalalari yuzasidan yig'ilishlar o'tkaziladi;

**ikkinchidan**, **haftada bir marotaba** rais o'rinbosarlari boshchiligida maqsadli ko'rsatkichlarni bajarilish holatini tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda ko'rib chiqilib, muhokama qilinmoqda.

**uchinchidan**, **har oy yakuni bo'yicha** bank Boshqaruvining kengaytirilgan yig'ilishlarida **maqsadli ko'rsatkichlarni bajarilishiga mas'ul xodimlarning javobgarligini oshirish** maqsadida bank Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari kesimida har bir maqsadli ko'rsatkich tanqidiy muhokama qilingan holda, tegishli choralar ko'rib borilmoqda;

**to'rtinchidan**, reja-grafikka muvofiq, bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari va mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlari mas'ul xodimlarining bilim va ko'nikmalari oshirish maqsadida **iqtisodiy o'qishlar** tashkil etilmoqda.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida bank tizimida **kunlik nazorat** o'rnatilgan bo'lib, **topshiriqlar ijro holati** yuzasidan **belgilangan muddatlarda hisobot** kiritib boriladi.